

QORAQOLPOG'ISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA TEYLERIOZ KASALLIGINI DAVOLASH VA UNI OLDINI OLISHNING PRAGRESIV CHORA-TADBIRLARI

Kudaybergenov T

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali magistranti

Annotatsiya. Maqolada qoramollarda uchraydigan teylerioz kasalligini kelib chiqishi va uni oldini olish choralari bo'yicha adabiyot manbalari tahlili ma'lumotlari berilgan.

Kalit so'zlar. Proplazmidoz, protozoy, teylerioz, surtma, Theileria annulata, Theileria mutans, Theileria orientalis, Nuttalia, Hyalomma detritum, Hyalomma anatolicum.

Аннотация. В статье приведены сведения по анализу литературных источников происхождения тейлерииоза крупного рогатого скота и мерах его профилактики.

Ключевые слова. Проплазмидоз, простейшие, тейлерииоз, мазок, Theileria annulata, Theileria mutans, Theileria orientalis, Nuttalia, Hyalomma detritum, Hyalomma anatolicum.

Annotation. The article provides information on the analysis of literary sources on the origin of the disease theileriosis in cattle and measures for its prevention.

Key words. Proplasmidosis, protozoa, theileriosis, smear, Theileria annulata, Theileria mutans, Theileria orientalis, Nuttalia, Hyalomma detritum, Hyalomma anatolicum.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF 4947-son O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 28-martdagi PF 5696-son "Veterinariya chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonlari, 2019-yil 28-martdagi PQ 4254-son "O'zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi va 2020-yil 29-yanvardagi PQ 4576-sonli "Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuning dolzarbligi. Qoraqolpog'iston Respublikasida chorvachilik va qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirishda, barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarda chorva mollari bosh sonini ko'paytirish, ularni mahsuldorligini oshirish, turli yuqumli, yuqumsiz va invazion kasalliklarga qarshi kurashish va oldini olish choralari ko'rib borish jarayonida, ushbu sohani rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi qator omillar ham mavjud. Shujumladan, qoramollarda uchraydigan parazitlar kasalliklari orasida, ayrim teyleriozlar tarqalishi va

keltiradigan iqtisodiy zarari bo'yicha muhim o'rin egallaydi. Ushbu kasalliklarga qoramollar teyleriozini misol keltirish mumkin.

Chorva mollarning teyleriozlari Piroplazmida turkumi, Theileriidae oilasiga mansub bo'lgan sodda parazitlar tomonidan qo'zg'atiladi. Mazkur oila ikki: Theileria va Nuttalia avlodini o'z ichiga olgan. Bizning mamlakatimizda yirik shoxli hayvonlar teyleriozi 4 turdagi qo'zg'atuvchilar tomonidan chaqiriladi, bundan ikki turi Theileria annulata va Theileria sergenti kuchli kasallik chaqirish qobiliyatiga ega, qolgan ikki turi Theileria mutans va Theileria orientalisni virulentligi biroz pastdir [2].

Teylerioz - yirik shoxli hayvonlar, qo'tos hamda zebularning o'tkir va yarim o'tkir kechadigan transmissiv invasion kasalligi hisoblanib, Theileria annulatani dastlab RES hujayralarida, so'ngra eritrotsitlarda parazitlik qilishi tufayli sodir bo'lib, limfa tugunlarining kattalashishi, tana haroratining ko'tarilishi, anemiya, yurak qon-tomir va hazm organlari faoliyatining izdan chiqishi, kasal hayvonlarning oriqlashi va o'lim darajasining yuqori bo'lishi bilan xarakterlanadi [3].

1888-yili Babesh Ruminiyada qoramollar orasida keng tarqalgan "qon siyish" kasalligini qo'zg'atuvchisini ochishga erishdi. 1889-yili Smit va Kilbornlar ham qoramollar qoni tarkibida piroplazmiylarni topib, shu bilan Amerikada "Texas isitmasi" deb nom olgan kasallik qo'zg'atuvchisi *Piroplasma bigeminum* ekanligini isbot qildilar. 1893-yili Babesh, Smit va Kilbornlar piroplazmoz kasalligi qo'zg'atuvchisi kasal hayvon organizmidan sog'lomlariga yaylov kanalari orqali yuqishini aniqladilar. Bu esa odam va hayvonlarning turli kasalliklarining sababchisi bo'lgan bir hujayrali organizmlar yaylov kanalari orqali tarqalishi fan olamida yangi kashfiyot edi [1].

O'zbekistonda yirik shoxli hayvonlar teyleriozi to'g'risidagi ma'lumotlarni 1906-1911- yillari I.M.Kovalevskiy ham bayon qilgan. U hayvon qonini mikroskop ostida tekshirib, ularning birida noxsimon, boshqasida yumaloq, yana birida nuqtasimon parazitlar borligini aniqlab, kasal hayvonlarning ichki organlaridan taloq, buyrakni o'zgarganligini va siydik pufagida qonsiz siydikhamda shirdonning shilliq pardalarida xarakterli yarachalar borligini qayd etgan [3].

Qo'zg'atuvchi va uning biologiyasi. Kasal hayvonlarning periferik qonida teyleriylarning shakli turli-tuman: yumaloq, oval, nuqtasimon, tayoqchasimon, vergulsimon, anaplazmasimon bo'lib, shulardan O'zbekiston sharoitida ko'proq yumaloq, oval va nuqtasimon shakllari uchraydi. Romanovskiy usuli bilan bo'yalgan surtmalarda ular turli shakllarga ega bo'lib, kattaligi 8 mkm dan 20 mkm gacha bo'ladi. Har qaysi zararlangan eritrotsitlarda 1-7 tagacha, ko'pincha 2-3 ta teyleriylar bo'lishi va eritrotsitlarning zararlanish darajasi 60-90 % ga yetishi mumkin [3].

Teyleriozni tarqatuvchi ikki egalik *Hyalomma detritum* va uch egalik *Hy.anatolicum* yaylov kanalari mollarni chaqqandan so'ng kasallikka moyil mollarga o'z so'lak bezlaridamavjud kasallik qo'zg'atuvchi *Theileria annulata* ni mol organizmiga o'tkazadi, dastlab hujayralarida ko'payib, makro va mikroshizontlarni hosil qiladi, ular esa o'z navbatida yana bo'linib

mikromerazoitlarni ya'ni teyleriyalarni hosil qiladi. So'ngra ular eritrotsitlarga kirib olibparazitlik qilishni boshlaydi [2-3-5].

Klinik belgilari. Zararlangan yaylovlarda boqilgan hayvonlarda kasallikning inkubatsion davri 12-21 kun va undan ham ko'proq davom etishi mumkin. Qoramollar teylerioz kasalligi o'tkir va yarim o'tkir ko'rinishda kechib, boshqa xo'jaliklardan keltirilgan hayvonlar orasida asosan o'tkir ko'rinishda kechadi. Kasallik o'tkir kechganda kilinik belgilari dastlab limfa tugunlarining asosan ko'krak oldi, yelin usti va boshqa limfa tugunlarining notekis kattalashuviniko'rishimiz mumkin. Limfa tugunlari 2-4 marotaba kattalashgan, paypaslaganda qattiq va og'riqli bo'ladi. Kasal hayvonlarni tana harorati 41° C gacha, ayrim paytda undan ham yuqori, ko'tariladi, shu bilan birga ularni ishtahasi pasayadi. Kasallik rivojlanishi bilan 3-4-kunida hayvon ishtahasi mutlaqo yo'qoladi, kavsh qaytarilishi to'xtaydi. Kasallik yengil kechganda ishtahasi saqlanishi mumkin. Natijada hayvonlarning ovqat hazm qilish tizimlarida muammolar yuzaga kelib, hayvonning mahsuldorligiga ham ta'sir ko'rsatadi [3].

Kasallik yarim o'tkir kechganida ham limfa tugunlari kattalashadi, tana harorati 41° C gacha va undan yuqorigacha ko'tarilib 2-3 kundan so'ng pasayib, so'ngra yana ko'tariladi va oz-ozdan o'zgarib kasallikning oxirigacha yuqori darajada davom etadi. Bu ko'rinishda kechayotgan kasallik 2-3 hafta davom etadi. Ko'zga ko'rinarli shilliq pardalar biroz giperemiyalangan bo'lib, so'ngra oqargan va unga ko'plab nuqtasimon qon quyilgan bo'ladi. Puls va nafas olishi tezlashgan, hayvonlarni ishtahasi yo'qolgan, kasallikning boshlanish davrida ichaklar peristaltikasi kuchayib, ich ketishi sodir bo'lsa, u tezda ich qotishi bilan almashadi, chunki ichaklar atoniyasi paydo bo'ladi [3].

Davolash. Kasal hayvonlar ajratilib, alohida xonalarda saqlanadi va mahalliy zoosanitariya normalari asosida ularga yengil hazm bo'ladigan ozuqalar: ko'k o't, maydalangan ildiz mevalar, kepak yoki omuxta yem, yangi sut zardobi, qatq berilishi hamda yonida doimo toza suv bo'lishi kerak. Kasallikning birinchikunidan boshlab simptomatik davolash parazitlarga qarshi kompleks kurash choralari bilan birgalikda olib borilishi lozim. Teyleriozni maxsus davolash usullari veterinariya amaliyotidahali ishlab chiqilmagan.

Bimugal va azidin bilan davolash. Buning uchun kasallikning birinchi kunida bimugaldan hayvonning har bir kg tirik vazni hisobiga 5 mg dan olib uni distillangan suvda 1 % li qilib eritib tomirga yuboriladi hamda azidinga esa hayvonning 1 kg tirik vazni hisobiga 3,5 mg dan olib, uni distillangan suvda 7 % li qilib eritib teri ostiga yuboriladi. Kasallikning 2-4-6- kunlari bimugal va 3-5-7- kunlari esa azidin bilan davolash o'tkaziladi [3].

Delagil va diamidin bilan davolash. Buning uchun kasallangan hayvonning tana harorati normallasguncha va qonida teyleriyalar soni kamayguncha 5-7 kun davomida hayvonning har 1 kg tirik vazni hisobiga 2 mg dan diamidin olib, uni distillangan suvda 10 % li qilib eritib teri ostiga yuboriladi [3].

So'nggi yillarda teyleriozni davolashda quyidagi preparatlar tavsiya etilmoqda: Butachem, Teleks, Tilomaks, Buparvalek, Buparvakon. Bu

preparatlar 1ml/20 kg tirik vazniga muskul orasiga yuboriladi. Agarda 72 soatdan keyin hayvonda o‘zgarish kuzatilmasa dozani ko‘paytirishtavsiya qilinmoqda.

Kasallikni oldini olish. Kasallikni oldini olish uchun molxonalarni har 1,5-2 oyda bir marotaba ichki va tashqi tomonidan kanlarga qarshi turli kimyoviy moddalar sepiladi. Bundan tashqari hayvonlarga haftada 1 marotaba neotsidol simbush suvli eritmasi bilan, salqin paytlarda 7% li dustdan foydalanib ishlov beriladi [3].

Shuningdek, kuzgi-qishgi davrlarda, ya’ni yaylovlarda kasallik qo‘zg‘atuvchisining tashuvchi kanalari paydo bo‘lishidan 2-3 oy oldin, teyleriozga moyil yosh hayvonlar emlanadi. Buning uchun O‘zbekiston veterinariya ilmiy tekshirish institutining professori I.X.Rasulov

boshchiligidagi bir guruh olimlar tomonidan ishlab chiqilgan kultural vaksinadan foydalaniladi [3].

Xulosa. Hozirgi kunda Respublikamizda piroplazmidoz kasalliklari keng tarqalgan, mavsumiy, transmissiv protozoy kasalliklari qatoriga mansub bo‘lib, chorvachilikka katta zarar yetkazib kelmoqda. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni inobotga olgan holda, oxirgi yillarda olib borilgan tadqiqot natijalariga tayanib teylerioz kasalligini davolash va oldini olishning yangi, zamonaviy usullarini ishlab chiqishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.Parazitologiya i invazionnye bolezni selskoxozyaustvennyx jivotnyx. K.I.Abuladze, M.: Agropromizdat, 1990.

2.A.O‘rmanov. Teylerioz kasalligini davolash va uni oldini olish chora-tadbirlari TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti qarshi irigatsiya va agrotexnologiyalar instituti“O‘zbekistonning janubiy hududlarida qishloq xo‘jalikmahsulotlarini yetishtirish saqlash va qayta ishlashning muammo va istiqbollari” mavzusida anjuman Qarshi 2024.

3.Parazitologiya fanidan amaliy va laboratoriya mashg‘ulotlari. P.S.Haqberdiyev, Sh.X.Qurbonov, Toshkent, 2015.

4.Veterinariya protozoologiyasi va araxnaentomologiyasi. P.S.Haqberdiyev, F.B.Ibragimov, Samarqand, 2020

5.Qoramol piroplazmidozlarini davolash va oldini olish chora-tadbirlari. P.S.Haqberdiyev, D.X.Nishonov, “Veterinariya meditsinasi” ilmiy-ommabop jurnali 2020 №154, 24-25-bet

6.Qoramollarning piroplazmidoz kasalliklarini davolashda yangi preparatlarni qo‘llash usulini takomillashtirish. P.S.Haqberdiyev “Zooveterinariya” jurnali 2013 №7-8, 21-22-bet

7.Piroplazmidozlarning epizootik holati va qarshi kurashish chora-tadbirlari. To‘xtamishvN., Bobonazarov E. Samarqand-2021.

ЎЗБЕКИСТОНДА БАЛИҚЛАР ГЕЛЬМИНТЛАРИНИ ЎРГАНИЛИШ ҲОЛАТИ

Жақсиликова Г.Қ.¹, Сарсенбаев И.Е.¹, Дильманова А.И.²